# 2-DARS

Медиа сабак

# MAVZU:
# JURNALISTIKA VA MEDIA SAVODXONLIK

Медиа сабак



Axborot - bu atrofimizdagi dunyo haqidagi barcha ma'lumotlar

OAV nafaqat ma'lumot beradi

Demokratiya va so'z erkinligi

Har bir inson davlat organlari faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo’lish imkoniga ega

# JURNALISTIKA



**JURNALISTIKA**
(FRANSUZCHA JOURNAL - KUNDALIK, GAZETA) - OMMAVIY AXBOROT KANALLARI (MATBUOT, RADIO, TELEVIDENIE, KINO VA BOSHQALAR) ORQALI TEGISHLI MA'LUMOTLARNI TO'PLASH, QAYTA ISHLASH VA VAQTI-VAQTI BILAN TARQATISH BILAN SHUG'ULLANUVCHI IJTIMOIY FAOLIYAT TURI.

JURNALIST - JURNALISTIKA BILAN O’ZINING ASOSIY KASBI SIFATIDA SHUG'ULLANADIGAN, MUHIM FAKTLAR, VOQEALAR, ODAMLAR, HODISALAR TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLARNI TO'PLASH, OCHIB BERISH VA TINGLOVCHILARGA TAQDIM ETISH ORQALI OAV TARKIBIGA HISSA QO'SHADIGAN SHAXS.

Медиа сабак

# AXBOROT BO'LISHI KERAK:

1. ISHONCHLI
2. DOLZARB
3. TEZKOR
4. TUSHUNARLI
5. TO'LIQ
6. O'Z VAQTIDA
7. ANIQ

OB'EKTIV MA'LUMOTLAR

AXBOROT, AGAR U HECH KIMNING FIKRI, HUKMIGA BOG'LIQ BO'LMASA OB'EKTIVDIR.

MASALAN:

"TASHQARIDA HAVO ISSIQ" DEGAN XABAR SUBYEKTIV (FIKR) MA'LUMOT BERADI, VA "TASHQARIDA HAVO HARORATI 22 ° C " DEGAN XABAR - OB'EKTIV – BU FAKT, AGAR TERMOMETR TO’GRI ISHLAYOTGAN BO'LSA.



## AXBOROTNING MUTANOSIBLIGI




OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDAGI MUTANOSIBLIK - BU VOQEA, JARAYON, MOJARONING BARCHA TOMONLARIGA GAPIRISH UCHUN IMKONIYAT BERILISHI. BU OLTIN QOIDA! IKKALA BAHSLI TOMONGA QO'SHIMCHA RAVISHDA, KO'PINCHA UCHINCHI FIKR BO'LISHI MUMKIN: NEYTRAL, EKSPERT, VAZIYATNI TASHQI TOMONDAN KO'RIB CHIQADIGAN TAHLILCHINING FIKRI.

AGAR BERILGAN AXBOROT TUSHUNISH VA QAROR QABUL QILISH UCHUN YETARLI BO'LSA, BU AXBOROTNI TO'LIQ DEB ATASH MUMKIN.



**AXBOROTNING DOLZARBLIGI -**

BU UNING AYNI PAYT UCHUN MUHIMLIGI, SHOSHILINCHLIGI. FAQAT O’Z VAQTIDA OLINGAN MA'LUMOT FOYDALI BO'LISHI MUMKIN.



MA'LUMOTLAR AUDITORIYA UCHUN TUSHUNARLI BO'LISHI KERAK. MA’LUMOTNING MANTIQIYLIGI, IXCHAMLIGI, QULAY SHAKLDA TAQDIM ETILISHI UNI TUSHUNISH VA O'ZLASHTIRISHNI YENGILLASHTIRADI.



INSONNING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI MUHIM ROL O'YNAYDI. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI HAM FOYDALI, HAM ZARARLI BO'LISHI MUMKIN. OAV ORQALI BERILGAN MA'LUMOTDAN BOSH TORTISH QIYIN VA DEYARLI IMKONSIZDIR. AXBOROT OQIMIDA QANDAY HARAKATLANISH KERAK? HAR QANDAY BERILGAN MA'LUMOT HAQIDA TANQIDIY FIKRLASH ORQALI.

# MEDIA SAVODXONLIGI

SAVODXONLIK (O'QIY OLISH VA YOZA OLISH QOBILIYATI)

→

KOMPYUTER SAVODXONLIGI (KOMPYUTERDA ISHLAY OLISH KO'NIKMALARIGA EGA BO'LISH)

↓

AXBOROT SAVODXONLIGI (KOMPYUTER BILAN ISHLAY OLISH, SHUNINGDEK, MA'LUMOT QIDIRISH VA UNI QAYTA ISHLAY OLISH QOBILIYATI)

←

MEDIA SAVODXONLIGI (TURLI XIL OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDAGI XABARLARNI TAHLIL QILA OLISH, BAHOLAY OLISH VA YARATA OLISH)

MEDIA-TA'LIM HAR BIR MAMLAKAT FUQAROSINING SO'Z ERKINLIGI VA AXBOROT OLISH HUQUQINING ASOSIY QISMIDIR, U DEMOKRATIYANI QO'LLAB-QUVVATLASHGA YORDAM BERADI. (UNESCO TAVSIYALARI, 2002 Y.)



# XULOSA

# JURNALISTNING ASOSIY VAZIFASI - YANGI ISHONCHLI FAKTLAR HAQIDA ODAMLARNI XABARDOR QILISH.

# OAVDAGI MA'LUMOTLAR OB'EKTIV, TO'LIQ, MUTANOSIB, TEGISHLI VA TUSHUNARLI BO'LISHI KERAK.

# MA’LUMOTNI KERAKLI MIQDORDA QABUL QILISH KERAK.

# MEDIA SAVODXONLIGI ZARURIY ZAMONAVIY BILIM